Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 37
PEDAGOGIKA

IMOM ABU HOMID G'AZZOLIY TA'LIMOTIDA FARZAND TARBIYASINING MA'NAVIY-AXLOQIY ASOSLARI VA ULARNING ZAMONAVIY PEDAGOGIKADAGI AHAMIYATI

Gulnoz Ulug'bek qizi Isoqova*
Buxoro xalqaro universiteti magistranti
✉ gulnozisoqova99@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Imom Abu Homid G'azzoliyning farzand tarbiyasiga oid ma'naviy-axloqiy qarashlari hamda ularning zamonaviy pedagogik tafakkurdagi ilmiy va amaliy ahamiyati tadqiq etiladi. Tadqiqot jarayonida allomaning "Ihyo ulum ad-din", "Ayyuhal valad" va boshqa asarlarida ilgari surilgan tarbiya konsepsiyalari pedagogik tahlil asosida yoritilgan. Maqolada G'azzoliy tomonidan ilgari surilgan qalb pokligi, axloqiy komillik, ota-onaning mas'uliyati, ustozning shaxsiy namunasi, bolaga mehr va nazorat uyg'unligi kabi tamoyillarning mazmun-mohiyati ochib beriladi. Shuningdek, tadqiqotda allomaning farzand tarbiyasiga doir qarashlari bugungi globallashuv, axborotlashuv va ma'naviy tahdidlar kuchaygan davr talablari bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Yosh avlod tarbiyasida ma'naviy qadriyatlarning susayishi, oilaviy tarbiya masalalaridagi muammolar hamda pedagogik jarayonda axloqiy yondashuvning ahamiyati G'azzoliy ta'limoti asosida ilmiy asoslab beriladi.

Kalit so'zlar

farzand, tarbiya, odob, axloqiy, avlod, ma'naviy tarbiya, axloqiy qadriyatlar, barkamol avlod, oilaviy tarbiya, pedagogik qarash, fazilat, milliy qadriyat, qarash, iymon-e'tiqod, g'oya.

DOI: 10.5281/zenodo.21743272

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari tez sur'atlarda rivojlanayotgan davrda yosh avlod tarbiyasi masalasi dunyo miqyosidagi dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning zaiflashuvi, internet va ommaviy madaniyatning salbiy ta'siri, oilaviy tarbiyada kuzatilayotgan muammolar yoshlar ongiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday murakkab sharoitda sharq mutafakkirlarining boy ma'naviy merosi, xususan Imom Abu Homid G'azzoliyning tarbiya haqidagi qarashlari muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Imom Abu Homid G'azzoliy Sharq falsafasi, islom axloqshunosligi va pedagogik tafakkurining yirik namoyandalaridan biri hisoblanadi. Uning asarlarida inson kamoloti, axloqiy poklik, ma'naviy yetuklik hamda farzand tarbiyasi masalalari keng yoritilgan. Alloma inson qalbi tarbiyasini jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida talqin etadi. G'azzoliy nazarida bolaning tarbiyasi eng avvalo oiladan boshlanadi va ota-onaning mas'uliyati orqali shakllanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi Imom Abu Homid G'azzoliyning farzand tarbiyasiga oid ma'naviy-axloqiy qarashlarini ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilish hamda ularning zamonaviy pedagogikadagi ahamiyatini yoritishdan iborat.

Imom G'azzoliy insonni jismoniy mavjudot sifatida emas, balki ma'naviy va ruhiy mavjudot sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, bolaning qalbi pok va beg'ubor holda dunyoga keladi. Shu sababli tarbiya jarayoni bolaning kelajakdagi shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Alloma bolaning qanday inson bo'lib yetishishi ko'p jihatdan ota-ona, muhit va ustozga bog'liq ekanini ta'kidlaydi. Shuningdek, G'azzoliy tarbiyada axloqiy poklikka alohida urg'u beradi. Uning ta'limotiga ko'ra, bolaga yoshligidan yaxshi xulq-atvor,

odob, halollik, sabr, hayo, kattalarga hurmat, kichiklarga mehr kabi fazilatlarni singdirish zarur. Tarbiya faqat nasihat bilan emas, balki amaliy namuna orqali amalga oshirilishi kerakligi alloma tomonidan alohida qayd etiladi. Chunki bola ko‘proq eshitganidan ko‘ra ko‘rganiga ergashadi. Bizga ma’lumki, farzand axloq-odobni asosan, ota-onasidan o‘rganadi. Farzandni barkamol qilib tarbiyalash ota-onaning insoniyat va jamiyat oldidagi muqaddas insoniy burchi hisoblanadi. Shuning uchun payg‘ambarimiz hadislarida “Kishi o‘z bolasiga odobdan ko‘ra afzalroq narsa ato etolmaydi”, - deyilgan.Imom G‘azzoliy farzand tarbiyasi to‘g‘risida fikr yuritar ekan, Qur’oni Karim hamda Hadisi Shariflarga tayanadi. Shu bilan bir qatorda, u o‘z asarlarida dalil sifatida mashhur kishilar, donishmandlar fikrlaridan keltiradi. Imom G‘azzoliy ota-onalar mazkur buyuk shaxslarning fikrlari mazmunini chuqur anglab, o‘z farzandlarini halol, mehnatsevar, yurtparvar, odobli, axloqli shaxs qilib tarbiyalashlari lozimligin istaydi. Chunki Islom ta’limotining negizi inson va u bajaradigan vazifalarga yo‘naltirilgan. Shuning uchun ham, Abu Homid G‘azzoliy ta’limotida insoniy munosabatlar tizimida eng avvalo alohida shaxs muammosi, uning tug‘ilishi, yashash tarzi va boshqalar bilan muloqotining ma’naviy-axloqiy jihatlari o‘z ifodasini topgan.Imom G‘azzoliy ushbu munosabatlar shunchaki o‘tkinchi emas, balki har bir shaxs hayoti davomida rioya qilishi lozim bo‘lgan insoniy burchi ekanligini turli yo‘l va vositalar bilan anglatishga intiladi. Shuningdek, u ota-ona va farzand munosabatlari ham islomda axloqiy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan asoslanganligini har jihatdan bayon qiladi. Qur’onning 16 surasi, 72 oyati hamda juda ko‘plab hadislarda oila, oilada farzand tarbiyasi, er-xotin, oila-nikoh masalalari, ota-ona bilan farzand munosabatlari haqida fikr yuritilgan. Islom ta’limoti mohiyatida bu tabiiy tarzda o‘z ifodasini topgan. “Otaga itoat qilish –Allohga itoat qilishdir. Otaga osiy bo‘lish – Allohga osiy bo‘lishidir”, - deyiladi hadislarda. Ota-ona bilan bir qatorda, qarindosh-urug‘, qo‘ni-qo‘shni va boshqa jamiyat a’zolarini hurmat qilish lozim. G‘azzoliy ning ta’kidlashicha, Islom ta’limotida rahmdillik, mehr-shafqat, mehribonlik, g‘amxo‘rlik, saxiylik kabi ijobiy fazilatlar har bir shaxs axloqining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Farzandlar o‘zlarining namunali xulq-odoblari bilan atrofdagilarga o‘rnak bo‘lishlari lozim. Imom G‘azzoliy farzandning ota-ona oldidagi farzandlik burchini Islom ta’limoti va oddiy kishilar hayotidan olingan misollar asosida yangi oila qurib, farzandlar tarbiyalaydiganlar ibrat-namunasi sifatida, o‘z asarlarida qayta-qayta bayon qiladi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Imom G‘azzoliy ning farzand tarbiyasiga o‘ta muhim muammo deb qarashi uning madrasalarda mudarrislik faoliyatining natijasi hisoblanadi. Shuning uchun ham farzand ta’lim-tarbiyasiga qaratilgan asarlari tahlili uning yetuk pedagog bo‘lganligidan dalolat beradi.

Imom G‘azzoliy ustoz shaxsiga ham katta baho beradi. Uning fikricha, muallim nafaqat bilim beruvchi, balki axloqiy namuna bo‘luvchi insondir. Agar ustozning o‘zi yaxshi xulqqa ega bo‘lsa, bu fazilatlar tabiiy ravishda shogirdga ham o‘tadi. Shu sababli alloma ilm bilan birga odobni ham o‘rgatishni pedagogikaning muhim vazifasi sifatida ko‘radi. Alloma tarbiyada me’yor va muvozanat tamoyiliga amal qilish zarurligini ham ta’kidlaydi. Bolaga haddan ortiq erkinlik berish ham, uni ortiqcha qattiqqo‘llik bilan tarbiyalash ham salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu bois mehr, nazorat va intizom uyg‘unligi farzand tarbiyasining asosiy tamoyillaridan biri sifatida talqin qilinadi.

Imom G‘azzoliy ta’limotida ma’naviy-axloqiy tarbiya inson kamolotining eng muhim omili sifatida qaraladi. Alloma insonning tashqi ko‘rinishi emas, balki uning qalbi va ichki dunyosi go‘zal bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi. Shu sababli tarbiya jarayonida avvalo qalbni poklash va axloqiy fazilatlarni shakllantirish muhim hisoblanadi.G‘azzoliy tomonidan ilgari surilgan asosiy tamoyillardan yana biri bu halollikdir. Alloma halol rizq, rostgo‘ylik va adolatni barkamol insonning asosiy belgisi sifatida ko‘rsatadi. U yolg‘on, manmanlik, hasad va kibr kabi illatlarni inson ruhiyatini buzuvchi omillar sifatida baholaydi. Jumladan, allomaning “Ey, farzand” asarida qalb pokligi, halimlik, kamtarlik, mehribonlik, ilmsevarlik, yaxshilik, saxiylik, mardlik, kechirimli bo‘lish, vafodorlik kabi ijobiy sifatlarni ulug‘lash g‘oyasi ifodalangan. Shu bilan bir qatorda, mazkur asar mazmuni yoshlarni hayotga muhabbat, kattalarga nisbatan mehr-muruvvatli, imon-e’tiqodli, g‘amxo‘r, mehnatsevar, vatanparvar qilib tarbiyalashga qaratilgan. Ushbu asarda farzandlardan talab qilinadigan axloq-odob me’yorlari aniq belgilab berilgan.Allomaning uqtirishicha, ustoz ham, shogird ham o‘z ustlarida mutassil ishlashlari lozim. G‘azzoliy moddiy olamda vujudga keladigan illatlarni bartaraf etishda islom madaniyati muhim pedagogik vosita sifatida xizmat qilishini alohida ta’kidlaydi. Bu esa, bugungi kunda ham muhim didaktik qimmatga ega.

Yana bir muhim tamoyil sabr va shukr tushunchalari bilan bog‘liqdir. G‘azzoliy inson hayotidagi qiyinchiliklarni sabr bilan yengish hamda mavjud ne’matlarga shukr qilishni komillik belgisi sifatida ko‘rsatadi. Bu g‘oyalar bugungi kunda ham yoshlarni ruhiy jihatdan mustahkam etib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.Alloma tarbiyada muhabbat va mehrning roliga ham alohida e’tibor qaratadi. Uning fikricha, bolaga mehr bilan munosabatda bo‘lish uning ruhiy kamolotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Aksincha, qo‘pollik va zo‘ravonlik bolaning ruhiyatiga salbiy ta’sir etishi mumkin.

Bugungi zamonaviy pedagogika tizimida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv va ma’naviy tarbiya masalalariga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu jihatdan Imom G‘azzoliy qarashlari zamonaviy pedagogik tamoyillar bilan uyg‘unlik kasb etadi.Hozirgi davrda yoshlar orasida ma’naviy bo‘shliq, individualizm va axloqiy qadriyatlarga befarqlik kabi holatlar uchramoqda. G‘azzoliy ta’limotidagi qalb tarbiyasi, axloqiy poklik va ma’naviy yetuklik haqidagi qarashlar bunday muammolarning oldini olishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.Zamonaviy pedagogikada bolaning individual qobiliyatlarini rivojlantirish muhim o‘rin tutadi. G‘azzoliy ham har bir bolaning o‘ziga xos tabiati mavjudligini va tarbiya jarayonida shu jihatni hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi. Bu esa allomaning qarashlari zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuvlarga mos kelishini ko‘rsatadi.

Shuningdek, oilaviy tarbiya masalasida ham G‘azzoliy qarashlari bugungi kun uchun nihoyatda dolzarbdir. Ota-onaning farzand oldidagi mas’uliyati, oiladagi ma’naviy muhit, farzandga mehr va e’tibor masalalari bugungi pedagogik tadqiqotlarda ham asosiy mavzulardan biri hisoblanadi.Ta’lim jarayonida ustozning shaxsiy namunasi masalasi ham alloma qarashlarining zamonaviyligini ko‘rsatadi. Chunki bugungi pedagogika ham o‘qituvchining kasbiy mahorati bilan birga uning ma’naviy qiyofasiga katta e’tibor qaratadi.

Xulosa

Imom Abu Homid G‘azzoliy sharq pedagogik tafakkuri tarixida farzand tarbiyasi masalasiga chuqur yondashgan mutafakkirlardan biri hisoblanadi. Allomaning ma’naviy-axloqiy tarbiya haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. U ilgari surgan qalb pokligi, axloqiy komillik, mehr-muhabbat, ota-onaning mas’uliyati va ustoz namunasi kabi g‘oyalar zamonaviy pedagogikaning muhim tamoyillari bilan uyg‘unlashadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, G‘azzoliy ta’limotidan yosh avlodni ma’naviy barkamol etib tarbiyalash, oilaviy tarbiya tizimini mustahkamlash hamda pedagogik jarayon samaradorligini oshirishda samarali foydalanish mumkin. Ayniqsa, globallashuv davrida yoshlarni turli ma’naviy tahdidlardan himoya qilishda allomaning pedagogik merosi muhim nazariy va amaliy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘azzoliy A. H. Ihyo ulum ad-din. – Qohira: Dorul ma’rifa, 2005.
2. G‘azzoliy A. H. Ayyuhal valad. – Toshkent: Movarounnahr, 2018.
3. Isoqova Gulnoz Ulug’bek qizi Imom G‘azzoliy farzand tarbiyasiga oid qarashlarini o’rganishning ilmiy-nazariy asoslari. Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi ISSN 3030-3710(P) ISSN 3030-3095(E) N 9,2025
3. Hasanboyev J. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2016.
4. Abu Homid G’azzoliy “Ey farzand”/Toshkent: ”Book Media Shop” MCHJ qoshidagi Munir nashriyoti,2021.-96b
5. www.ziyouz.com
6. https://www.ziyonet.uz/